XALQ DEPUTATLARI NAMANGAN VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 13-noyabr VII-15-149-6-0-K/25 Namangan viloyati

Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashining “Namangan viloyatining 2025 yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 26-dekabrdagi VII-4-030-6-0-K/24-son qaroriga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 147-moddasiga asosan, Namangan viloyati iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig‘i birinchi o‘rinbosarining hisobotiga asosan, Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashining “Namangan viloyatining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2024-yil 26-dekabrdagi VII-4-030-6-0-K/24-sonli Kengash qaroriga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risidagi Namangan viloyati hokimining 2025-yil 13-oktabrdagi 01/10-1294-son taqdimnomasini ko‘rib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining:

147-moddasiga asosan, bir hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchi uchun ajratilgan budjet mablag‘larini boshqa hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchiga o‘tkazish ajratiladigan budjet mablag‘larining cheklangan miqdorining 10 va undan ortiq foiz miqdorda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari tomonidan amalga oshirilishi;

10 foizdan kam miqdorda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan amalga oshirilishi, bundan

ushbu Kodeks 145-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasnoligi;

Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchi tasarrufidagi bir budjet tashkiloti va budjet mablag‘lari oluvchidan boshqa budjet tashkiloti va budjet mablag‘lari oluvchi uchun budjetdan ajratiladigan mablag‘larni o‘tkazish hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar so‘roviga ko‘ra tegishli hududiy moliya organlari tomonidan amalga oshirilishi belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-apreldagi PQ-5084-sonli qarori hamda budjet tashkilotlarining murojaatlari ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Mazkur topshiriqlar ijrosini ta’minlash maqsadida, Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashining “Namangan viloyatining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 26-dekabrdagi VII-4-030-6-0-K/24-sonli Kengash qarorining:

3-ilovasidagi Namangan viloyatining viloyat budjetidan mablag‘ oluvchi hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar xarajatlar rejasi 1-ilovaga asosan;

5-ilovasidagi Namangan shahar va tumanlar mahalliy budjetlari xarajatlar rejasiga 2-ilovaga muvofiq, o‘zgartirishlar kiritilsin.

4. Namangan viloyati iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (M.Abdullayev) ushbu Kengash qarorini ijrochilarga yetkazilishini ta’minlasin.

5. Mazkur qaror ijrosining nazorati Xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi I.Ikromov hamda viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari Z.Baxriddinov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi  MUMINOV SOLIJON DJALILOVICH

Xalq deputatlari Namangan viloyati
Kengashining
2025-yil 13-noyabrdagi
VII-15-149-6-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Namangan viloyatining viloyat budjetidan mablag‘ oluvchi hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar xarajatlar rejasiga kiritilayotgan o‘zgarishlar miqdori

№	Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar	Xarajatlariga kiritilayotgan o‘zgarish summasi (ming. so‘m)
1	Namangan viloyati hokimligi	19,040,800.0
2	Namangan viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi	-28,087,314.0
3	Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi	10,659,167.0
4	Viloyat sport boshqarmasi	-193,206.0
5	Yoshlar ishlari agentligining hududiy boshqarmasi	16,727.0
6	Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi	-46,374.0
7	Kurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi	-7,635.0
8	Namangan viloyati Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi	-2,715,947.0
9	Namangan viloyati Sog‘liqni saqlash boshqarmasi	17,290.0
10	Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi	65,739.0
11	Viloyat Madaniyat boshqarmasi	249,341.0
12	Viloyat Adliya boshqarmasi	8,570.0
13	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi	-46,786.0
	J A M I	**1,039,628.0**

Xalq deputatlari Namangan viloyati
Kengashining
2025-yil 13-noyabrdagi
VII-15-149-6-0-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Namangan shahar va tumanlar mahalliy budjetlari xarajatlar rejasiga kiritilayotgan o‘zgarishlar miqdori

№	Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar	Xarajatlariga kiritilayotgan o‘zgarish summasi (ming. so‘m)
1	Namangan shahar	4,442,225.0
2	Mingbuloq tumani	-1,000,500.0
3	Kosonsoy tumani	-1,127,429.0
4	Namangan tumani	1,036,340.0
5	Pop tumani	-243,916.0
6	To‘raqo‘rg‘on tumani	-1,201,472.0
7	Uychi tumani	66,989.0
8	Chortoq tumani	2,366,984.0
9	Yangiqo‘rg‘on tumani	-5,572,169.0
10	Norin tumani	457,132.0
11	Uchqo‘rg‘on tumani	2,564,444.0
12	Chust tumani	-749,000.0
JAMI		**-1,039,628.0**